

SPORTCHILAR DASXATLARINING FUNKSIONAL AHAMYATI VA XOSLANISHINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI

U. Ergashov

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

M. Sulaymonov, Ph.D

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

ARTICLE INFO.

Tayanch so'z va iboralar.
 Dastxatlar, avtograf, tilshunos, nutq, metod, stilistikaning predmet, nutq uslublari.

Annotatsiya

Dastxatlarning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari, jumladan, dastxat beruvchilarning o'zaro munosabati bilan bog'liq tomonlari, ularning o'ziga xos nutqini baholash va tahlil qilish, adresantning xat orqali o'zligini namoyon etishi kabi masalalar chet el hamda rus tilshunosligida bir qadar o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bu muammo o'zining sotsiolingvistik jihatdan tadqiqini kutmoqda. Boshqacha qilib aytganda, turli ijtimoiy mavqega ega bo'lgan shaxslar dastxatlari matnining uslubiy qonuniyatlari, ularning mantiqiy-mazmuniy bog'liqlik jihatlari o'zbek tilshunosligida diqqat markazidan chetda qolib kelmoqda.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Kirish.

Tarixdan ma'lumki, buyuk kishilarning dastxatlari yuksak darajada qadrlangan. XVI asrda Fransiyada avtograf yig'ish ishlari bilan shug'ullanila boshlangan. XVIII asr oxirida Rossiyada birinchi xalq kutubxonasi tashkil etildi va uning direktori A. S. Strogonovning iltimosiga binoan Aleksandr I tomonidan Parij elchixonasidagi rus amaldori P.P. Dubrovskiyga tegishli dastxatlar keltirildi. Mazkur kutubxonada fransiyalik mashhur kishilarning 8 mingga yaqin dastxatlari yig'ilgan.

2006 yilda Moskva shahrida o'tkazilgan XIX Xalqaro kitob yarmarkasida ilk bor "Asr avtograflari" kitobining taqdimoti o'tkazilib, undan Rossiyaning eng mashhur kishilarining dastxatlari o'rni oldi. Shuningdek, ruslarda A.S. Pushkin, M. Gorkiy, V. Mayakovskiy kabi taniqli kishilarning dastxatlari qimmatli manba sifatida e'tirof etiladi. Jamiyatning taraqqiy etishi bilan mashhur kishilardan dastxat olish, muzey va tashkilotlarda esdaliklar yozib qoldirish an'anaga aylanib qoldi.

Har bir millat o'zining milliy qadriyatlar, urf-odatlari bilan farqlanadi. "O'zbek xalqi muomala madaniyatida ko'p qo'llanadigan jumlalar ichida shundaylari borki, ularda o'zaro muomalaga kirishgan shaxslar bir-birlariga yaxshi tilak bildiradilar. Bunday jumlalar duo qilish, biror munosabat bilan muborakbod etish, xayrashish, salomlashish, ta'ziya bildirish kabi vaqtarda aytildi. Ularga xos bo'lgan umumiy xususiyat shundan iboratki, bunday jumlalar semantik va shakliy jihatdan o'zbek tilida barqarorlashib, akasariyati nutqiy etiketga aylanib qolgan va ularning barchasidan ijobiy istak mazmuni anglashiladi". Dastxat matnlarida ham bu jihatlar muhim o'rinn egallaydi. Chunki dastxatlarning asosiy mazmunini tilak, niyat tashkil etadi. Bu holat odamlarimizning bir-birlariga doimo samimiy

munosabatda bo‘lishi, yaxshi tilaklar bildirishining in’ikosidir.

Dastxat o‘zbek tilida bir necha tushunchani bildirgani uchun uning lug‘aviy ma’nolari haqida to‘xtalib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Chunki har qanday insонning qo‘li bilan yozilgan yozuv biz o‘рганайотган mavzuning ob’ekti bo‘la olmaydi. Buning uchun biz dastxat tushunchasiga oydinlik kiritib, uni ma’lum darajada chegaralab olamiz.

Aytish joizki, hozirgi kunda **avtograf** va **dastxat** so‘zlari aynan bir ma’noda, ya’ni “o‘z qo‘li bilan esdalik uchun yozilgan yozuv yoki imzo” ma’nosida qo‘llanmoqda. Ammo lug‘atlarda bu so‘zлarning turlicha talqin qilinganligini kuzatish mumkin:

“**Avtograf** (avto+yun. grapho – yozaman) ... O‘z qo‘li bilan yozilgan yozuv va imzo; dastxat (ko‘pincha xotira uchun).”

“**Dastxat** - (f+a) دست خط qo‘l bilan bitilgan).

Shaxsning o‘z qo‘li bilan yozilgan xati”.

“**Avtograf, dastxat**. Har bir shaxs yoki yozuvchining o‘z qo‘li bilan yozgan xati.

Kishilar ijtimoiy qiziqishlari orqali paydo bo‘ladigan faoliyat (san’at, hunar, sport, adabiyot, ilm, siyosat va hokazo) bilan doimiy shug‘ullanib kelganlar. Har bir faoliyat turining yetuk ustasi, ko‘pchilikning havasini keltirgan namoyandalari bo‘ladi. Bu esa muayyan turdagи faoliyat bilan shug‘ullanuvchi arbob darajasiga yetishishni istaganlarni o‘z orqasidan ergashtirishi tabiiy, ya’ni kishilar (muxlislar) ulardan hech bo‘lmaganda dastxat olishga harakat qiladilar. Ana shu dastxatlarda birinchi navbatda dastxat beruvchining shug‘ullanayotgan faoliyat turining “soya”sini kuzatish mumkin. Chunki har qanday faoliyat turi insondan o‘ziga xos ruhiy kechinma va muayyan ko‘nikmalarini talab qiladi. Oqibatda bu ko‘nikmalar har bir faoliyatda ichki o‘ziga xos qoidalar va xulq-atvor me’yorlarida, ya’ni kishilarning ijtimoiy markerlarida o‘z aksini topadi. Dastxatlarda kishilarning ichki nutqi: tilak, e’tirof va xulosa ifodalovchi fikrlari, tuyg‘u va kechinmalari ifodalanadi. Uning matnida bevosita adresantning tildan qanday foydalanishi kuzatiladi. Shunday ekan, dastxatlар matnini, ya’ni dastxat beruvchining nutqini tadqiqot markaziga olib kirish va uni atroflicha, to‘la-to‘kis tadqiq etish uchun birgina tilshunoslikning o‘zi ojizlik qiladi. Bunga dastxat beruvchining ijtimoiy mavqeい, dastxat berish jarayonidagi holati, o‘ziga xos presuppozitsiyalar va o‘zaro muloqot jarayonining ruhiy, milliy, ijtimoiy, hududiy xususiyatlarga ega ekanligi sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham bu muammoni yaxlit tadqiq etish o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan muayyan jabhada o‘zaro yaqinlashuvi natijasida paydo bo‘lgan yangi sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika kabi tutash fanlar, etnopsixolingvistika, sotsiopsixolingvistika kabi soha va yo‘nalishlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Chunki fanlarning mana shunday tutash nuqtasini tadqiq etish kishilarning ichki nutqini aks ettiruvchi dastxatlarning asl mohiyatini va o‘ziga xos qonuniyatlarini atroflicha o‘рганиш imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, dastxat adresantlari turli kasb-kor egalari bo‘lishi nuqtai nazaridan bir-biridan o‘zaro funksional jihatdan farqlanadi va ularni quyidagicha tasrif qilish mumkin:

1. Davlat arboblari dastxatlari.
2. Yozuvchi va shoirlar dastxatlari.
3. Olimlar dastxatlari.
4. Sportchilar dastxatlari.
5. San’atkorlar dastxatlari.

Dastxatlар ichida yozuvchi va shoirlarning dastxatlari alohida o‘rin tutadi. Chunki ijodkorning har qanday asari o‘quvchiga katta ma’naviy ozuqa beradi. Dastxat ham uning kichik bir asari, ya’ni ijod mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рахимова, К. Н. К. (2022). Яшил бизнес аҳамиятининг ортиб боришининг ижтимоий-иктисодий зарурати. *Scientific progress*, 3(2), 880-885.
2. Rakhimova, K. (2022). SOCIO-ECONOMIC NECESSITY OF INCREASING THE IMPORTANCE OF GREEN BUSINESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 1034-1037.
3. Husanbek, Q., & Raximova, K. N. (2022). OILAVIY KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI. *Gospodarka i Innowacje*. 24, 1103-1108.
4. Мохигул, А. & Рахимова, К. (2022). ҚУРИЛИШ МАТЕРИЛЛАРИ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚИШ ПОТЕНЦИАЛИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje*. 24, 999-1002.
5. Raximova, K. N., & Abdurahmon Mominjon og, A. (2022). YASHIL HOM-ASHYOLARDAN QURILISH SOHALARIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Gospodarka i Innowacje*. 24, 957-960.
6. Qizi, R. K. N. M., & Kadirovna, A. M. (2022). ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 149-153.
7. Рахимова, К. Н. Турсунов, О. Мирзаев, Р. Б. Ахмадалиева, М. К. & Кодиров, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА «ЯШИЛ МОЛИЯ» ТИЗИМИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje*. 28, 90-96.
8. Kizlarkhon, R. (2022). ECONOMICAL USE OF LAND AND WATER RESOURCES WITH THE OPTIONS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(09), 148-151.
9. Абдусаматов, Д. А. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИЕМНИКОВ ОПТИЧЕСКОГО ИЗЛУЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ ОПТОЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ СИСТЕМ. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 986-988.
10. Абдусаматов, Д. А., & Рахимов, Н. Р. (2021). Технологические Особенности Изготовления Афн-Пленок И Приборных Структур На Их Основе.
11. Рахимов, Н. Р. & Абдусаматов, Д. А. (2021). Определение Природы Возникновения Аномального Фотонапряжения И Разработка Оптрона На Их Основе.
12. Madvaliyev B., Rakhimova K. The Role of Small Business and Private Entrepreneurship in the Economy //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 264-267.
13. Абдусаматов, Д. А. (2022). Классификация Приемников Оптического Излучения Для Разработки Оптоэлектронных Информационно-Измерительных Систем. *Gospodarka i Innowacje*. 24, 986-988.
14. Kuldashov, O. H., Komilov, A. O., & Abdusamatov, D. A. (2022). COMPUTER MODEL OF IONIZER. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 133-139.
15. Mamatisakov, J. J. O. G. L., Abduqaxxorov, L. S. O. G. L., Rahmatjonov, A. A. O. G. L., & Vahobjonov, A. A. O. G. L. (2021). REGIONAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF TOURIST ROUTES. *Scientific progress*, 2(8), 57-60.

16. Dilshodbek O'g'li, R. S. (2022). The Role Of Physical Culture In Providing The Psychological Health Of The Athlete. *Innovative Developments And Research In Education, Canada*.
17. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Sportchi Psixologik Salomatligiga Ta'sir Etuvchi Omillar. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117-121.
18. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 39-47.
19. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 66-70.
20. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMUY JURNALI*, 2(11), 215-221.
21. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 256-259.